

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN BIZNES FAOLIYATINI KREDITLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Sultanov Baxram Begdullayevich
Qoraqalpaq davlat universiteti
bakhram9009@mail.ru

Annotatsiya. Tijorat banklarining investitsion kreditlari korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish xarajatlarini moliyalashtirishning muhim manbayi hisoblanadi. Lekin sanoat korxonalarining tijorat banklarining investitsion kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish uchun banklar yetarli darajada resurslarga ega bo‘lishi, sanoat korxonalari esa investitsion kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: tijorat banki, kredit, investitsion kredit, zaxira, foiz stavkasi, inflyatsiya, resurs, sanoat korxonasi, likvidlilik, to‘lovga qobillik.

Аннотация. Инвестиционные кредиты коммерческих банков являются важным источником финансирования затрат на модернизацию предприятий, техническое и технологическое перевооружение. Но для того, чтобы повысить уровень использования инвестиционных кредитов коммерческих банков промышленными предприятиями, банки должны обладать достаточными ресурсами, а промышленные предприятия должны иметь возможность возвращать инвестиционные кредиты вовремя и в полном объеме. В статье выявлены актуальные проблемы, связанные с совершенствованием практики кредитования предприятий коммерческими банками Республики Узбекистан, и разработаны научные предложения, направленные на их решение.

Ключевые слова: коммерческий банк, кредит, инвестиционный кредит, резерв, процентная ставка, инфляция, ресурс, промышленное предприятие, ликвидность, платежеспособность.

Abstract. Investment loans from commercial banks are an important source of financing the costs of modernization of enterprises, technical and technological re-equipment. But in order to increase the level of use of investment loans from commercial banks by industrial enterprises, banks must have sufficient resources, and industrial enterprises must be able to repay investment loans on time and in full.

The article identifies current problems related to improving the practice of crediting enterprises by commercial banks of the Republic of Uzbekistan, and develops scientific proposals aimed at solving them.

Keywords: commercial bank, loan, investment loan, reserve, interest rate, inflation, resource, industrial enterprise, liquidity, solvency.

KIRISH

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida istiqbolli investitsiya loyihalarini hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni kengaytirish makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri sifatida e'tirof etilgan (PQ-4947).

Shuningdek, 2020 - 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklari kreditlari hajmining mo'tadil o'sishiga erishish mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan (PF-5992).

Yuqorida qayd etilgan holatlar tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish masalasini ilmiy asosda tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Uerta de Soto (Soto, 2008) tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijasi ko'rsatdiki, tijorat banklari investitsion kreditlarining foiz stavkalarini pasayishi bunga qadar foyda keltirmayotgan investitsiya loyihalarini foyda keltiradigan investitsiya loyihalariga aylantiradi va banklar tomonidan ixtiyoriy jamg'armalar bilan ta'minlanmagan kreditlar hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirilishi natijasida investitsiya loyihalarining barbod bo'lishi va berilgan kreditlarning qaytmasligi holatlari yuzaga keladi.

G.Panovaning (Panova, 1997) fikriga ko'ra, banklarning kreditlar berish imkoniyatini oshirish uchun, birinchi navbatda, ularning depozit bazasini yetarliligini ta'minlash lozim.

J.Sinkining (Sinki, 2017) xulosasiga ko'ra, kredit oluvchi kompaniyaning faoliyati va menejmentining samaradorligini to'g'ri baholash banklarning kredit bo'limi xizmatchilarining muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi.

J.Sinkining ushbu xulosasi O'zbekiston bank amaliyoti uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki respublikamiz tijorat banklari korxonalarga kredit berishda ularning menejmenti samaradorligini baholashmaydi.

V.Kayukov va A.Kayukovlar (V.Kayukov va A.Kayukov, 2007)ning fikriga ko'ra, sanoat korxonalarini banklarning kreditlari bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish uchun tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash, banklarning aktiv va passivlarining hajmi va muddatiga ko'ra mutanosibligini ta'minlash lozim.

O.Lavrushinning (Lavrushin, 2016) xulosasiga ko'ra, kredit liniyasi doirasida yiriklashtirilgan obyekt bo'yicha qisqa muddatli kreditlashning yirik korxonalar uchun quyidagi afzalliklari mavjud:

- faqat yuridik shaxslarga beriladi;
- bankning mijozlari bo‘lib faqat yirik korxonalar hisoblanadi;
- kredit oluvchilar bo‘lib doimiy ravishda qisqa muddatli resurslarga ehtiyoji bo‘lgan korxonalar hisoblanadi;
- ushbu kreditni oluvchilarning asosiy hisobraqami kredit berayotgan bankda bo‘ladi;
- kredit faqat moliyaviy jihatdan ishonchli bo‘lgan mijozlarga beriladi.

J. Majidovning (Majidov, 2020) xulosasiga ko‘ra, milliy valyutaning qadrsizlanish sur‘atining yuqori ekanligi importning qimmatlashishiga va inflyatsiyaning kuchayishiga olib keldi. Buning natijasida korxonalarning xorijiy valyutalarda olgan kreditlarini to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlari va mahsulotlar tannarxining oshib ketishi yuz berdi. Natijada, ularning to‘lovga qobillik darajasi pasaydi.

METODOLOGIYA

Ilmiy maqolani yozishda ilmiy tadqiqotni amalga oshirishning induksiya va deduksiya hamda ekspert baholash usullaridan, moliyaviy tahlilning guruhlash, qiyosiy, tarkibiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonalarini kreditlash Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki kreditlash faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2020-yilning 31-dekabr holatiga ko‘ra, TIF Milliy banki kreditlarining hajmi 65,6 trln. so‘mni tashkil etgani holda, uning 31,8 foizini iqtisodiyotning sanoat tarmog‘iga mansub bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga berilgan kreditlar tashkil etdi (www.nbu.uz).

O‘z navbatida, TIF Milliy bankining sanoat korxonalarini kreditlash imkoniyatini kengaytirish bankning resurs bazasiga va sanoat korxonalarining likvidligi va to‘lovga qobilligiga bog‘liq.

Quyidagi jadval ma‘lumotlari orqali TIF Milliy bankining resurs bazasi dinamikasiga baho beramiz.

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, TIF Milliy bankining muddatli depozitlari miqdori 2020-yilda 2018-yilga nisbatan 66,9 foizga kamaygan. Bu esa Milliy bankning sanoat korxonalarini kreditlash imkoniyatini kengaytirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, TIF Milliy bankining boshqa banklardan olgan kreditlari 2020-yilda 2018-yilga nisbatan 12,2 foizga o‘sgan. Bu esa mazkur davrda xorijiy banklardan olingan kreditlar miqdorining oshganligi bilan izohlanadi.

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, TIF Milliy bankining regulyativ kapitali miqdori 2020-yilda 2018-yilga nisbatan 22,6 foizga oshgan. Bu esa bank kreditlarining resurs ta‘minotini yaxshilash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Chunki regulyativ kapital barqaror moliyalashtirish manbayi hisoblanadi.

1-jadval

TIF Milliy banki resurs bazasining tarkibi va dinamikasi¹

Ko'rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2020-yilda 2018-yilga nisbatan o'zgarishi, %
Muddatli depozitlar, mlrd. so'm	3 287	6 515	1 089	33,1
Boshqa banklardan olingan mablag'lar, mlrd. so'm	37 792	35 307	42 420	112,2
Regulyativ kapital, mlrd. so'm	5 722	13 141	13 873	242,5
Resurslar - jami	46 801	54 963	57 382	122,6

2018-2020-yillarda TIF Milliy bankida talab qilib olinadigan depozitlar va muddatli depozitlarning miqdorining o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Ammo ushbu bankda depozit bazaning yetarliligi ta'minlanmagan, ya'ni talab qilib olinadigan depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 30 foizdan yuqori.

2018-2020-yillarda TIF Milliy bank depozitlarining umumiy hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog'i pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa bankning resurs bazasini mustahkamlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Tijorat banklarining sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolardan biri bo'lib, banklarda balanslashmagan likvidlilik muammosining mavjudligi hisoblanadi.

O'z navbatida, tijorat banklarida balanslashmagan likvidlilik muammosining yuzaga kelishida banklarning aktivlarini muddati bilan majburiyatlarini muddati o'rtasidagi nomutanosiblik muhim rol o'ynadi (1-jadval).

1-jadval

AT «O'zsanoatqurilishbank»da aktivlar va majburiyatlarning muddatiga ko'ra tarkibi [14]


Ko'rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Bir yildan ortiq muddatga ega bo'lgan aktivlar, trln. so'm	13,2	23,7	29,0
Bir yildan ortiq muddatga ega bo'lgan majburiyatlar, trln. so'm	16,9	19,0	23,9

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2018-2020-yillarda Sanoatqurilishbank aktivlari muddati bilan majburiyatlari o'rtasida jiddiy mutanosiblik mavjud bo'lgan.

Banklarning sanoat korxonalarini kreditlash imkoniyatini kengaytirish bevosita ularga berilgan kreditlarning sifatiga bog'liq.

¹ Jadval muallif tomonidan www.nbu.uz sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2018-2020-yillarda TIF Milliy bankida sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'yicha yaratilgan ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasining sanoat korxonalariga berilgan kreditlarga nisbatan darajasi yuqori bo'lgan. Buning ustiga ushbu ko'rsatkich 2020-yilda 2018-yilga nisbatan 0,1 foizli punktga oshgan. Mazkur holatlar TIF Milliy bankining sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.



1-rasm. TIF Milliy banki tomonidan sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasining darajasi, foizda¹

Ta'kidlash joizki, respublikamiz tijorat banklarida uzoq muddatli kreditlarning resurs ta'minoti masalasi hal qilinmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev e'tirof etganlaridek, «Banklarga qo'yilgan depozitlarning 70 foizi qisqa muddatli bo'lgani holda kreditlarning 90 foizi uzoq muddatga berilgan».

Ta'kidlash joizki, koronavirus pandemiyasi O'zbekiston tijorat banklarining sanoat korxonalarining kreditlash amaliyotiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi (PF-5978) «Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq, yuridik shaxslarning kreditlari bo'yicha 7,9 trln so'm miqdorida qarzdorlik, jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlar bo'yicha 4,7 trln so'm miqdoridagi qarzdorlik 2020-yilning 1-aprelidan 1-oktyabriga qadar kechiktirildi, koronavirusga qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan choralar va iqtisodiy faollikning keskin pasayishi sababli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan tashkilotlarning kreditlari bo'yicha qo'shimcha restrukturizatsiya qilinadigan to'lovlar hajmi qo'shimcha ravishda 7 trln so'mni tashkil etdi.

¹ Rasm muallif tomonidan www.nbu.uz sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalarining tijorat banklarining investitsion kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish uchun banklar yetarli darajada resurslarga ega bo'lishi, sanoat korxonalari esa investitsion kreditlarni o'z vaqtida va to'liq qaytarish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Istiqbolli investitsiya loyihalarini hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni kengaytirish mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

TIF Milliy bankining muddatli depozitlari miqdorini 2020-yilda 2018-yilga nisbatan 66,9 foizga kamayganligi uning sanoat korxonalarini kreditlash imkoniyatini kengaytirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

TIF Milliy bankining boshqa banklardan olgan kreditlari miqdorini 2020-yilda 2018-yilga nisbatan 12,2 foizga o'sganligi mazkur davrda xorijiy banklardan olingan kreditlar miqdorining oshganligi bilan izohlanadi.

2018-2020-yillarda TIF Milliy bankida depozit bazaning yetarliligi ta'minlanmagan, ya'ni talab qilib olinadigan depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 30 foizdan yuqori.

2018-2020-yillarda Sanoatqurilishbank aktivlari muddati bilan majburiyatlari o'rtasida jiddiy mutanosiblik mavjud bo'lgan.

2018-2020-yillarda TIF Milliy bankida sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'yicha yaratilgan ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasining sanoat korxonalariga berilgan kreditlarga nisbatan darajasi yuqori bo'lgan.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak:

1. Sanoat korxonalariga beriladigan kreditlarning resurs ta'minotini yaxshilash maqsadida, birinchidan, banklarning qimmatli qog'ozlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash orqali ushbu qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan pul mablag'larining resurslar takribidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash lozim; ikkinchidan, sof foizli spread ko'rsatkichining barqaror darajasini ta'minlash orqali muddatli depozitlarga to'lanadigan foizlarning darajasini oshirish imkoniyatini saqlab qolish kerak; uchinchidan, banklararo kreditlarning resurslar hajmidagi salmog'ini pasaytirish lozim (ular qimmat resurs bo'lganligi uchun).

2. Tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning sifatini oshirish yo'li bilan kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini pasaytirish maqsadida, birinchidan, tasniflangan kreditlar tarkibini standart va substandart kreditlarning salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash hisobiga yaxshilash kerak; ikkinchidan, sanoat korxonalarining kredit to'loviga layoqatliligini baholash tizimini, taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida keng qo'llanilayotgan moliyaviy koeffitsiyentlarni va pul oqimini baholash usullarini joriy qilish yo'li bilan takomillashtirish lozim; uchinchidan, sanoat

korxonalariga berilgan kreditlarning ta'minoti tarkibida to'lovga qobilligi yuqori bo'lgan sug'urta kompaniyalarining sug'urta polislarining salmog'ini oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 сон Фармони//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – № 6 (766). – Б. 32.
2. ПФ-5992. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги “Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси”тўғрисидаги Фармони//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.05.2020 й., 06/20/5992/0581-сон.
3. Уэрто де Сото Хесус (2008). Деньги, банковский кредит и экономические циклы. Пер. с англ. – Челябинск: Социум, – 666 с.
- Панова Г.С. (1997). Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС». – С. 194.
4. Синки Дж. (2017) Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер. – С.547.
5. Каюков В.В., Каюков А.В. (2007). Совершенствование механизма обеспечения промышленных предприятий кредитными ресурсами//Труды Вольного экономического общества России. – Москва. – Том №86. – С. 135-145.
6. Лаврушин О.И. (2016). Краткосрочное кредитование по укрупненному объекту в пределах кредитной линии. Банковское дело. Под ред. Проф. О. Лаврушина. – М.:КНОРУС, 2016. – С. 430.
7. Мажидов Ж.К. (2020). Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари активлар портфелларининг сифатини ошириш йўллари. И.ф.б. ф.д. дисс. автореф. – Тошкент. – Б. 22.
8. Мирзиёев Ш.М. (2019). Банклар энди «ўз аравасини ўзи тортиши керак». <https://sputniknews-uz.com/economy/20191026/2694075>.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 апрелдаги “Коронавирус пандемияси даврида аҳоли, иқтисодиёт тармоқлари ва тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5978 сон Фармони//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.04.2020 й., 06/20/5978/0393-сон, 15.07.2020 й., 06/20/6027/1071-сон.